

OILALARDA NIZOLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**Ibrohomov Jasurbek Akmal o'g'li**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20260185>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilalarda nizolarni tadqiq etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Oila munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy-psixologik, pedagogik va falsafiy omillari o'rganilgan. Shuningdek, Sharq va G'arb mutafakkirlarining oila, ahillik va insoniy munosabatlarga oid qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularning shaxs tarbiyasi va jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda nizolarni bartaraf etishda muloqot, o'zaro hurmat va ma'naviy qadriyatlarining ahamiyatini ilmiy asoslab beradi.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy nizolar, konfliktologiya, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, muloqot madaniyati, o'zaro hurmat, ma'naviy qadriyatlar, oilaviy muhit, nizolarni bartaraf etish.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы исследования конфликтов в семьях. Изучены социально-психологические, педагогические и философские факторы возникновения конфликтов в семейных отношениях. Также проводится сравнительный анализ взглядов восточных и западных мыслителей на семью, согласие и человеческие взаимоотношения. Автор научно обосновывает причины возникновения семейных конфликтов, их влияние на воспитание личности и стабильность общества, а также значение культуры общения, взаимного уважения и духовно-нравственных ценностей в предотвращении и разрешении конфликтов.

Ключевые слова: семья, семейные конфликты, конфликтология, семейные отношения, социально-психологические факторы, культура общения, взаимное уважение, духовные ценности, семейная среда, разрешение конфликтов.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of studying conflicts in families. The socio-psychological, pedagogical, and philosophical factors causing conflicts in family relationships are examined. In addition, the views of Eastern and Western thinkers on family, harmony, and human relations are comparatively analyzed. The author scientifically substantiates the causes of family conflicts, their impact on personality development and social stability, as well as the importance of communication culture, mutual respect, and spiritual values in preventing and resolving conflicts.

Keywords: family, family conflicts, conflictology, family relationships, socio-psychological factors, communication culture, mutual respect, spiritual values, family environment, conflict resolution.

Jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'li o'zini oqlagani kabi kuchli, barqaror hamda farovon davlat tizimi negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishini bugun tobora chuqur anglab yetmoqdamiz. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas. Mazkur maqsadda oilaviy munosabatlarni tartibga solish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Oilalarning barcha toifalari bilan doimiy

muloqatda bo'lish oilalarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o'rnatish balki ularni taminlashdan iborat" deb o'z fikrlarini ta'kidlab o'tdilar.¹ O'zbekiston Respublikasining yigirmata qonun va qonun osti hujjatlari 2016 yil 14 sentabirdagi "Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni, 2018 yil 3 iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin – qizlarni qo'llab – quvvatlash va oila insitutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila insitutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila " ilmiy – amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida" gi qarori hamda boshqa bir qator hujjatlarni keltirib o'tish mumkun.

Nizoli oilalardagi qiyinchiliklar tushunmovchiliklar psixologik, Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy muammolarda ko'rinadi. Oila azolarining hayot yo'lini tanlash kasb egallash, malaka oshirish, va boshqalar bularning barchasi oiladigi nizolarni xal etish uchun o'ziga xos umumiy jihatlar.

Nizoli oilalarni turmush davrida moddiy, manaviy, ruhiy va boshqa shunga o'hshash qiyinchiliklar tufayli oilaviy ajrimlar ijtimoiy nizolar, farzandlarning nogron tug'ilishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Nizoli oilalarda keng uchraydigan muammolar matijasida ajrimli oilalar keskin oshib borishi, xomlador ayollarda tug'ma va boshqa patalogik holatlarning ortib borishi, davlatning Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalariga, taraqiyotga salbiy tasir ko'rsatmoqda hamda davlatning Ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan islohatlardan kutilayotgan ijobiy natijalarni shubha ostida qoldirmoqda.

Davlat tomonidan nizoli oilalarni qo'llab – quvvatlash borasida amalg oshirilayotgan keng islohatlarga qaramasdan ularning turmush davrida keng uchraydigan salbiy hollatlar va ajrimlar dolzarb muammoga aylanmoqda.

Nizoli oilalar turmush davrida keng uchraydigan muammolarning ortib borishi sabablarini aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy tadbirlarni ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlar yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli (sub'ektlar individ/guruh/o'z o'zi bilan– ichki nizolar holatlarida bo'ladi.

"Nizo" va "nizoli vaziyat"² tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o'rtasida katta farq bor.

Nizoli vaziyat – ijtimoiy sub'ektlar o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi insonlar manfaatlarining mos kelmasligi. Asosiy belgisi – nizo predmeti yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo'qligi.

Ya'ni to'qnashuv rivojlanishi jarayonida **nizodan oldin** har doim **nizoli vaziyat** yuzaga keladi, uning asosi hisoblanadi.

Nizolarni to'rt turlari ko'rsatiladi:

- **ichki shahsiy** – shahsning kuchi bo'yicha tahminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Erkin va farovon demakratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiza. 2017 yil 14 bet

² www.uz.denometr.com 28.11.2018

• **shahslararo** – o'z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shaxslarni ifoda etadi;

• **guruhlararo** – biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko'zlagan va ularni amalga oshirish yo'lida bir-biriga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhlar nizoli tomonlari sifatida ishtirok etishlari bilan ajralib turadi;

• **shahsiy-guruhli** – shahsning hulqi guruh qoidalari va umidlariga mos kelmasligi holatlarida yuzaga keladi.

Nizoni oldindan ko'ra bilish uchun avval qandaydir qarama-qarshilik, kelishmovchilik mavjud bo'lgan hollarda yuzaga keladigan muammo mavjudligini aniqlab olish kerak. Shundan keyin, nizoli vaziyatning rivojlanish yo'nalishi aniqlanadi.

Nizolarning insonlarning maqsadlari farqlanganda yuzaga keladi.

Kelishmovchiliklar va konfliktlar odatda zo'rlik qo'llanilmasdan hal qilinadi va ko'pincha barcha jalb qilingan tomonlarning ahvolini yaxshilanishiga olib keladi. Bu holat konfliktlar bizning mavjudligimizning bir qismi bo'lganligi bois to'la adolatli hisoblanadi.»³

Nizolarni hal qilishga ikki xil yondoshuv mavjud:

– birinchisi – mavjud ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish;

– ikkinchisi – nizolar rivojlanishi qonuniyatlari bilimlarini va ularni oldini olish va bartaraf qilish usullarini egallash; (ancha qiyin yo'l, ammo ancha samarali, chunki turli nizolar barchasini bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatish mumkin emas). V.M.Afonkova nizolarga pedagogik aralashishning muvaffaqiyatliliigi pedagogning qarashlariga bog'liq bo'ladi deb ta'kidlaydi⁴. Bunday qarashlar kamida to'rtta bo'lishi mumkin:

Nizoga avtoritar aralashishi yondoshuvi – pedagog nizo – bu har doim ham yomon emasligi va u bilan kurashish kerakligiga ishonchi bo'lmagan holda uni bostirishga harakat qiladi;

Neytralitet yondoshish – pedagog tarbiyalanuvchilari o'rtasida yuzaga keladigan to'qnashuvlarni sezmaslikka va aralashmaslikka harakat qiladi;

Nizodan qochish – pedagog nizo – bu yuzaga kelgan vaziyatdan qanday chiqishni bilmasligi sababli bolalar bilan uning muvaffaqiyatsiz tarbiyaviy ishlarin ko'rsatkichi deb ishonadi;

Nizoga maqsadga muvofiq aralashish - pedagog tarbiyalanuvchilari jamoasini yaxshi bilishiga, tegishli bilim va malakalariga tayanib nizo kelib chiqishi sabablarini tahlil qiladi, uni bostirish yoki ma'lum darajagacha rivojlanib borishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'quv faoliyati sharoitlaridagi nizolar turli xildagi nizolar bo'ladi.

Pedagogika sohasi shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirish barcha turlari to'plamidan iborat bo'ladi, uning mohiyati esa ijtimoiy tajribani o'rgatish va o'zlashtirish bo'yicha faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun aynan mana shu yerda pedagog, o'quvchi va ota-onalarning ko'ngil hotirjamliklari uchun qulay ijtimoiy psixologik sharoitlar yaratish zarur.

Nizoning rivojlanib borishida qator bosqichlar mavjud:

1. Tahmin qiluvchi bosqich – manfaatlari to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlar bilan bog'liq.

³. Каранг: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.

С. Козлов “Педагогик канфлитология” фан укув кулланма Т – 2010 6-б.

2. Nizoning paydo bo'lish bosqichi – turli guruhlar yoki alohida insonlar manfaatlarining to'qnashuvi.

3. Nizoning etilishi bosqichi – manfaatlari to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi.

4. Nizoni anglab etish bosqichi – janjallashuvchi tomonlar manfaatlari to'qnashuvini faqatgina sezibgina qolmay, balki anglab ham eta boshlaydilar.

Nizo - bu aniq shaxs yoki guruhlardan iborat bo'lgan ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasida murosa mavjud bo'lmastir. Har bir tomon o'z nuqtayi nafari qabul qilinishiga intilib, boshqa tomonning shunday harakat qilishi uchun to'sqinlik qiladi (masalan ikki muxandis dastgoh yaratib, har biri o'z loyixasini qabul qilinishini talab qiladi). Nizo ko'pincha tajovuz, taxdid munozara, dushmanlik, urush va x.k.lar bilan tenglashtirilib, doimo nomaqbul hodisa sifatida qabul qilinadi, unga imkoni boricha yo'l qo'ymaslik, yoki tezlik bilan vujudga kelgan paytda hamla etish zarur deb hisoblaydilar.

Nizolarni bartaraf etishning quyidagi besh shaxslararo uslublari mavjud. Cheklanishi kishi nizodan qochishi, qarama-qarshiliklar vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatga tushmaslikka, ziddiyatlarga olib keluvchi masalalarni muxokama qilmaslikka harakat qilishini ifodalaydi. Silliqlash bekorga jaxl qilmaslik, bitta jamoada a'zosi bo'lganligi uchun xodimlar bir-biridan achchiqlanmasligi kerakligini ko'zda tutadi. Nizolar bo'yicha amerikalik olimlar R.Bleyk va D.Muton bir kishida nizoga bo'lgan intilishini bu muammo uncha katta ahamiyatga ega emasligini, xozirgi paytda yaxshi narsalar haqida o'ylash kerakligini ta'kidlash bilan bosish mumkinligini ko'rsatganlar⁵. Natijada tinchliktotuvlik o'rnatiladi, lekin muammo bartaraf qilinmaydi.

Zo'rlab taklif etilayotgan nuqtai nazarni zo'rlik bilan qabul qildirishdir. Bunday yo'l tutgan kishini boshqalar fikri qiziqitirmaydi, nizo kuch bilan, boshliq irodasiga bo'ysundirish yo'li bilan bostiriladi. Bu uslub rahbar qo'l ostidagilarga nisbatan katta etiborga ega bo'lgan vaziyatlarda qo'l keladi. Bu uslubning kamchiligi - xodimlar tashabbusini bo'g'adi. Zo'rlash, yoshroq va bilimi kuchliroq xodimlar o'rtasida norozilik vujudga kelishiga olib keladi.

Kelishuv boshqa tomon nuqtai nazarini ma'lum darajada qabul qilishni ifodalaydi.

Kelishuv qobiliyati yuqori baqolanadi, chunki u ziddiyatlarni bartaraf qilish, tomon rozi bo'lishiga olib keladi

Bugungi kunga qadar nikoh munosabatlarini tartibga solishning shartnomaviy konsepsiyasi ustuvor tusga ega. Bunda qonunchilik nikoh shartnomasini tuzish tartibi va u bekor bo'lgach yuzaga keladigan oqibatlariga oid bir qator qoidalarni nazarda tutadi. Nikoh-shartnoma konsepsiyasining asosida er-xotin mol-mulkingning shartnomaviy rejimini o'rnatish imkoniyatining mavjudligi yotadi. Biroq bu konsepsiyaga qarshi bo'lganlar nikoh shartnoma bo'la olmaydi, chunki er-xotinda faqatginaqonunda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar vujudga keladi va tomonlar ularning o'z xohish-irodalaridan kelib chiqib o'zgartira olmaydi, deb hisoblashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiza. 2017 yil 14 bet
2. Каранг: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.

⁵ Sulaymonov . O Toshkent aloqa axborotlashtirish va telekamunikatsiya texnologiyalari vazirligi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining mustaqil ishi T – 2015 11b

3. С. Козлов “Педагогик канфлиталогия” фан укув кулланма Т – 2010 6-б.
4. Sulaymonov . О Toshkent aloqa axborotlashtirish va telekamunikatsiya texnologiyalari vazirligi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining mustaqil ishi Т – 2015 11b
5. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonuni
6. Kadirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psix. fan. nomz. ... dis. –Т., 2007